HUQUQSHUNOSLIK FANLARI

1.

Biror bir mamlakat ichida amalga oshiriladigan funksiyalar davlatning ichki funksiyalari hisoblanadi.

Quyidagilardan davlatning iqtisodiy (a) va ijtimoiy (b) sohadagi ichki funksiyalarini aniqlang.

1) iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va iqtisodiyotga ta'sir o'tkazish;
2) mulk daxlsizligini ta'minlash;
3) aholining yordamga muhtoj qismini himoyalash;
4) pul aylanmasi ustidan nazorat;
5) aholini ijtimoiy ne'matlar bilan ta'minlash;
6) bozor munosabatlarining huquqiy asoslari va narx siyosatini yo'lga qo'yish.

A) *a-1, 6; b-2, 5* B) *a-1, 6; b-3, 5*
C) *a-1, 4; b-2, 3* D) *a- 3, 5; b-2, 4*

2.

Quyidagi jadvalning qaysi qatorlaridagi ma'lumotlar bir-biriga mos ravishda **to'g'ri berilgan**?

№	Davlatlar	Boshqaruv shakli	Tuzilishi
1	Italiya	Parlamentar respublika	Unitar
2	Gretsiya	Prezidentlik respublikasi	Federativ
3	Boliviya	Prezidentlik respublikasi	Unitar
4	Portugaliya	Prezidentlik respulikasi	Federativ
5	Finlandiya	Parlamentar respublika	Unitar
6	Germaniya	Parlamentar respublika	Federativ

A) *2, 3, 4, 6* B) *1, 3, 4, 5,* C) *1, 3, 5, 6* D) *2, 4, 5, 6*

3.

Jinoyat Kodeksi, 148-modda:

Bila turib, g'ayriqonuniy ravishda ishdan bo'shatish, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilsa, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning ajratib ko'rsatilgan qismi huquq normasining **qaysi tarkibiy qismi (elementi) ga oid**?

A) *dispozitsiya* B) *gipoteza*
C) *promulgatsiya* D) *sanksiya*

4.

Quyidagi vaziyatni tahlil qiling va qo'yilgan savolga javob bering.

"Yashil Makon" MCHJ va fuqaro Alimov B.A. o'rtasida oldi-sotdi shartnomasi tuzildi. Shartnomaga ko'ra, Alimov B.A. MCHJga 100 tup mevali daraxt ko'chatini yetkazib berishi, MCHJ esa buning uchun 5 million so'm to'lashi kerak.

Ushbu vaziyatda *"100 tup mevali daraxt ko'chatini yetkazib berish"* huquqiy munosabatlarning **qaysi tarkibiy elementiga oid** hisoblanadi?

A) *obyekt* B) *yuridik majburiyat*
C) *subyekt* D) *subyektiv huquq*

5.

Huquqbuzarlikning **ijtimoiy xavflilik (a)** va **ayblilik (b)** belgilari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

1) huquqbuzarning qonun normalari belgilab qo‘ygan majburiy talablarni buzishi;
2) ijtimoiy hayot ishtirokchilari bo‘lgan turli shaxslar, jamiyat, davlatning qonuniy huquq va manfaatlariga huquqbuzarlik oqibatida zarar yetkazish;
3) huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning vakolatli davlat organi tomonidan javobgarlikka tortilishi;
4) ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etish.

A) *a-1, b-4* B) *a-1, b-3* C) *a-2, b-4*
D) *a-2, b-3*

6.

Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi javobni aniqlang.

(Jinoyat kodeksi, 45^1-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

Majburiy jamoat ishlari bir yuz yigirma soatdan to‘rt yuz sakson soatgacha bo‘lgan muddatga tayinlanadi va (a)... davomida kuniga to‘rt soatdan ko‘p bo‘lmagan vaqtda, mahkumga bog‘liq bo‘lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda esa, (b)... gacha bo‘lgan muhlatda kuniga to‘rt soatdan ko‘p bo‘lmagan vaqtda o‘taladi.

1) olti oy; 2) bir yil; 3) uch yil; 4) besh yil.

A) *a-2, b-3* B) *a-1, b-2* C) *a-1, b-4*
D) *a-3, b-4*

7.

Oila kodeksining 67-moddasiga ko‘ra, **"bolaning himoyaga bo‘lgan huquqi"ga oid** to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang.

1) bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan amalga oshiriladi;
2) voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to‘la muomala layoqatiga ega deb e’tirof etilsa ham u o‘z huquq va majburiyatlarini, shu jumladan himoya huquqini mustaqil amalga oshirishga haqli emas;
3) bolaning hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘ilganligidan, uning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganligidan xabardor bo‘lgan shaxslar bu haqda bola ayni paytda yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma’lum qilishi shart;
4) bolaning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganda bola o‘z huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so‘rab vasiylik va homiylik organiga, o‘n yoshga to‘lgandan keyin esa, mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega.

A) *1, 3* B) *2, 3* C) *2, 4* D) *1, 4*

8.

O‘quv yili davomida o‘qishdan bo‘sh vaqtida ishlayotgan o‘n oltidan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlar (a) va o‘n beshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan shaxslar (b) uchun ish vaqtining davomiyligi **haftasiga necha soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi**? (Mehnat Kodeksi, 415-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) 24 soat; 2) 18 soat; 3) 16 soat; 4) 12 soat

A) *a-2, b-4* B) *a-1, b-4* C) *a-2, b-3*
D) *a-1, b-3*

9.

Quyida berilgan ma'lumotlarga mos **yakuniy xulosalar (to‘g‘ri/noto‘g‘ri)** keltirilgan javobni aniqlang.
(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

I. Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, biroq ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratilmaydi;
II. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi;
III. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o‘z faoliyati yo‘nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli emas;
IV. O‘zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi;
V. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatining moliyalashtirilishi manbalari haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar taqdim etadilar.

A) *I-noto‘g‘ri; II-to‘g‘ri; III-noto‘g‘ri; IV-to‘g‘ri; V-noto‘g‘ri*

B) *I-to‘g‘ri; II-noto‘g‘ri; III-noto‘g‘ri; IV-to‘g‘ri; V-to‘g‘ri*

C) *I-noto‘g‘ri; II-to‘g‘ri; III-to‘g‘ri; IV-noto‘g‘ri; V-noto‘g‘ri*

D) *I-to‘g‘ri; II-to‘g‘ri; III-noto‘g‘ri; IV-noto‘g‘ri; V-to‘g‘ri*

10.

Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi ma'lumotlarni aniqlang.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida"gi qonunning 5-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i doimiy ravishda ... binosida ko‘tariladi.
(2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) ijro etuvchi hokimiyat organlarining;
2) O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarining;
3) O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassalarining;
4) mahalliy davlat hokimiyati organlarining.

A) *2, 3* B) *1, 3* C) *1, 4* D) *2, 4*

11.

To‘g‘ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.

(O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida"gi qonun, 42-, 44-, 45-moddalar, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalari bo‘yicha takroriy murojaat O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari komissiyasi O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga oid materiallarni ko‘rib chiqishni tugatish haqida qaror qabul qilganidan so‘ng bir yil o‘tgach ichki ishlar organi yoki konsullik muassasasi tomonidan qabul qilinadi;
2) O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik to‘g‘risidagi ma'lumotnomani rasmiylashtirish haqidagi so‘rovnomani ichki ishlar organlari tomonidan ko‘rib chiqishning umumiy muddati O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga oid idoralararo ma'lumotlar bazasiga talabnoma kiritilgan paytdan e'tiboran uch oyni tashkil etadi;
3) fuqaroligi bo‘lmagan shaxsni O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olish to‘g‘risidagi arizani ichki ishlar organlari tomonidan ko‘rib chiqishning umumiy muddati ariza topshirilgan kundan e'tiboran olti oyni tashkil etadi;
4) O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga oid materiallarni ko‘rib chiqish tugatilgan taqdirda to‘langan davlat boji yoki konsullik yig‘imi qaytarib berilmaydi.

A) *2, 4* B) *1, 4* C) *2, 3* D) *1, 3*

12.

Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi javobni aniqlang.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari
- har kim uy-joyli bo‘lish huquqiga ega;
- har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega;
- . . .

A) *davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi*

B) *fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega*

C) *har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi*

D) *hech kim rasmiy e’lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas*

13.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risidagi qonunning 12-moddasiga ko‘ra, **"ombudsmanning huquqlari"ga oid** to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang. (2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik haqida tashkilotlar va mansabdor shaxslarga yozma ravishda ogohlantirish yuborish huquqiga ega;
2) inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida tashkilotlarning rahbarlariga ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega;
3) harakatlarida (harakatsizligida) inson huquqlari va erkinliklari buzilganligi aniqlangan shaxslarni javobgarlikka tortish to‘g‘risida tegishli tashkilotlarga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega;
4) sudning vakolatlari doirasiga kiradigan masalalarni, shuningdek jismoniy shaxslarning boshqa jismoniy shaxslar tomonidan ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan harakatlariga (harakatsizligiga) doir murojaatlarini ko‘rib chiqish huquqiga ega.

A) *1, 2* B) *3, 4* C) *2, 3* D) *1, 4*

14.

To‘g‘ri berilgan ma’lumotlarni aniqlang.

("O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida"gi qonun, 8-, 11-, 12-moddalar, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) jamoat birlashmasi kamida o‘n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi;
2) O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi xalqaro jamoat tashkilotlarining, jumhuriyat, viloyatlararo birlashmalarining ustavlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olinadi;
3) Qoraqalpog‘iston Respublikasida jamoat birlashmasining ustavini ro‘yxatga olish tartibi faqat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilanadi;
4) jamoat birlashmasi ustavini ro‘yxatga olish uchun ustav qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddat ichida mazkur jamoat birlashmasi rahbar idorasi a’zolari tomonidan imzolangan va shu a’zolar har birining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili, istiqomat joyi ko‘rsatilgan ariza topshiriladi;
5) jamoat birlashmasi ustavini ro‘yxatga olish haqidagi ariza u topshirilgan kundan boshlab uch oy muddatda ko‘rib chiqiladi;
6) jamoat birlashmasi ustavini, unga kiritilgan keyingi o‘zgartishlar va qo‘shimchalarni ro‘yxatdan o‘tkazganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdorda davlat boji undiriladi;
7) xalqaro, jumhuriyat va viloyatlararo jamoat birlashmalarining ustavini ro‘yxatdan o‘tkazishning rad etilishi ustidan tegishli viloyat, Toshkent shahar sudiga shikoyat qilish mumkin.

A) *1, 2, 4, 6* B) *2, 4, 5, 7* C) *1, 3, 4, 7* D) *2, 3, 5, 6*

15.

O‘zbekiston Respublikasi **Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy sohadagi vakolatlari**ni aniqlang.

("O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida"gi qonuni, 12-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) bozor munosabatlarini rivojlantirish, halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratish, iste’molchilar huquqlarining ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlash bo‘yicha choralar ko‘radi;
2) oila, onalik, otalik va bolalik muhofaza qilinishini ta’minlaydi, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish choralarini ko‘radi;
3) turizm industriyasini rivojlantirish va turizm infratuzilmasini kengaytirish uchun shart-sharoitlar yaratadi;
4) ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta’minlaydi, fuqarolarning haqiqiy daromadlarini oshirish, aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash choralarini ko‘radi.

A) *2, 3* B) *1, 4* C) *2, 4* D) *1, 3*

16.

Sudyaning daxlsizligiga oid to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang.

("Sudlar to‘g‘risida"gi qonun, 64-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi raisining sudyalar daxlsizligini buzganlik va ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashganlik faktlari to‘g‘risidagi taqdimnomasi prokuratura organlari tomonidan uch oy muddatda ko‘rib chiqiladi;
2) sudyani huquqni muhofaza qiluvchi organlarga guvoh yoki gumon qilinuvchi sifatida so‘roq qilish uchun chaqirishga faqat tegishli sudyalar malaka hay’atining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi;
3) sudya huquqbuzarlik sodir etganlikda gumon qilinib ushlab turilgan taqdirda, bu haqda ushlab turish uchun asos bo‘lgan hujjatlar ko‘chirma nusxalari ilova qilingan holda O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashiga u ushlangan paytdan e’tiboran yigirma to‘rt soatdan kechiktirmasdan xabar qilinishi shart;
4) Sudyaning turar joyiga yoki xizmat xonasiga, foydalanadigan transportiga kirish, ularni ko‘zdan kechirish, ularda tintuv o‘tkazish faqat sudning qaroriga binoan yoki O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin.

A) *1, 4* B) *2, 4* C) *2, 3* D) *1, 3*

17.

BMT tomonidan qabul qilingan qaysi xalqaro huquq hujjatlari **Inson huquqlari Xartiyasi**ni tashkil qiladi?

1) Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi;
2) Bola huquqlari haqidagi Konvensiya;
3) Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt;
4) "Xalqaro madaniy hamkorlik prinsiplari" deklaratsiyasi;
5) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt;
6) Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya.

A) *4, 5, 6* B) *2, 4, 6* C) *1, 3, 5* D) *1, 2, 3*

18.

Ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlariga oid **NOTO‘G‘RI** ma’lumotni aniqlang.

(Oila kodeksi, 96-, 98-, 99-, 110-moddalar, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

A) *ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berish uchun aliment to‘lash tartibini o‘zaro kelishgan holda belgilashga haqlidirlar*

B) *voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan undirilayotgan aliment miqdori qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo‘lmasligi kerak*

C) *ota-ona va bola alohida-alohida yashagan taqdirda, vasiylik va homiylik organlari, shuningdek o‘n to‘rt yoshga to‘lgan bola bir vaqtning o‘zida ota va onadan voyaga yetmagan bolalarning ta’minoti uchun aliment undirish to‘g‘risida da’vo qo‘zg‘atishga haqli*

D) *har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 28,6 foizidan kam bo‘lmasligi kerak*

19.

Vorislik huquqiga oid to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang.

(O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 1151-1153-moddalar, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) agar hozir bo‘lmagan merosxo‘r xabar qilingan paytdan e’tiboran olti oy ichida qolgan merosxo‘rlarni merosni taqsimlash haqidagi kelishuvda ishtirok etish istagi to‘g‘risida xabardor qilmasa, qolgan merosxo‘rlar hozir bo‘lmagan merosxo‘rga tegishli bo‘lgan ulushni ajratib, o‘zaro kelishuvga ko‘ra meros taqsimotini amalga oshirishga haqlidirlar;
2) agar homila holida bo‘lgan, biroq hali tug‘ilmagan merosxo‘r tirik tug‘ilsa, qolgan merosxo‘rlar unga tegishli bo‘lgan meros ulushini ajratgan holdagina merosni taqsimlashni amalga oshirishga haqlidirlar;
3) agar hozir bo‘lmagan merosxo‘rning turgan joyi meros ochilgan kundan e’tiboran bir yil mobaynida aniqlanmasa va uning merosdan voz kechishi to‘g‘risida ma’lumotlar bo‘lmasa, qolgan merosxo‘rlar meros taqsimotini fuqarolik kodeksi qoidalari bo‘yicha amalga oshirishga haqli emas;
4) meros ochilgunga qadar uch yil mobaynida meros qoldiruvchi bilan birgalikda yashagan merosxo‘rlar meros taqsimlanishida meros tarkibidan uy-joy, kvartira yoki boshqa turar joyni, shuningdek uy-joy ashyolari va ro‘zg‘or buyumlarini olishda imtiyozli huquqqa ega bo‘ladilar.

A) *3, 4* B) *2, 4* C) *1, 2* D) *1, 3*

20.

Sug‘urta shartnomasiga oid to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang.

(O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 916-922-moddalar, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) lotereyalar va garov o‘yinlarida ishtirok etishda ko‘riladigan zararni sug‘urtalashga yo‘l qo‘yiladi;
2) sug‘urtalangan deb hisoblanmaydigan shaxs foydasiga, shu jumladan sug‘urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug‘urta qildiruvchi foydasiga shaxsiy sug‘urta shartnomasi faqat sug‘urtalangan shaxsning yozma roziligi bilangina tuzilishi mumkin;
3) naf oluvchi foydasiga mol-mulkni sug‘urta qilish shartnomasi naf oluvchining ismi yoki nomi ko‘rsatilmasdan tuzilishi mumkin emas;
4) fuqaroga o‘z hayoti yoki sog‘lig‘ini sug‘urtalash majburiyati qonun bilan yuklatilishi mumkin emas.

A) *2, 4* B) *1, 3* C) *2, 3* D) *1, 4*

21.

Tovar nuqsonlarini bepul bartaraf etish tartibiga oid to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang.

("Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida"gi qonun, 15-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) tovarda kafolat muddatida topilgan nuqsonlarni sotuvchi iste’molchi tegishli talab qo‘ygan paytdan e’tiboran o‘ttiz kun ichida, ishlab chiqaruvchi esa, yigirma kun ichida bepul bartaraf etishi lozim;
2) uzoq muddat davomida foydalaniladigan tovarni ta’mirlashga ketadigan vaqtda foydalanib turish uchun iste’molchining talabiga binoan nuqsonli tovar qaytarib berilganidan keyin uch kun ichida unga ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar berib turiladi (sotuvchi hisobidan);
3) sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste’molchining ta’mirlashga ketadigan vaqtda foydalanish uchun shunday tovarni berib turish haqidagi talabini bajarish kechiktirilgan har bir kun uchun, shuningdek, nuqsonlarni bartaraf etishning shartnomadan kelib chiqadigan muddatlaridan ortiq kechiktirilgan har bir kun uchun tovar narxining bir foizi miqdorida iste’molchiga neustoyka (penya) to‘laydi;
4) iste’molchi kafolat muddati tugaganidan keyin tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish to‘g‘risida ishlab chiqaruvchiga talab qo‘yishga haqli emas.

A) *2, 4* B) *1, 4* C) *1, 3* D) *2, 3*

22.

Quyida berilganlardan qaysilari **turdosh huquqlar obyektlari (a) va subyektlari (b)** hisoblanadi?

("Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida"gi qonun, 44-45-moddalar, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) ijrolar; 2) fonogrammalarni tayyorlovchilar;
3) efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv beruvchi tashkilotning ko‘rsatuvlari; 4) Ijrochilar;
5) fonogrammalar; 6) efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv beruvchi tashkilotlar.

A) *a-1, 3, 5; b-2, 4, 6* B) *a-1, 5, 6; b-2, 3, 4*
C) *a-2, 3, 4; b-1, 5, 6* D) *a-2, 4, 6; b-1, 3, 5*

23.

Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplaridan qaysi biri xodimlarning va ish beruvchilarning vakillikni ta’minlash hamda o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun birlashishga bo‘lgan huquqini kafolatlaydi?

(Mehnat kodeksi, 6-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

A) *mehnat huquqlari ta’minlanishining va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlanganligi*

B) *mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash*

C) *mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash*

D) *mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik*

24.

Quyida keltirilganlardan qaysi biri **xodimning majburiyati HISOBLANMAYDI**?

(Mehnat kodeksi, 21-22-moddalar, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

A) *mehnat shartnomasi bilan o‘z zimmasiga yuklatilgan mehnat majburiyatlarini vijdonan bajarish*

B) *mehnatni muhofaza qilish talablariga, texnologiya intizomiga, mehnat xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalariga rioya etish*

C) *mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga, mehnat shartnomasiga muvofiq kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish*

D) *ish beruvchining mol-mulkiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish*

25.

To‘g‘ri moslashtirilgan javobni toping.

I. Ma’muriy huquq; II. Ma’muriy javobgarlik;

a) yo‘lovchining transportda chiptasiz yurishi;
b) yakka tartibda tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun ruxsatnoma olish;
c) haqorat qilish, shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish;
d) o‘z transportida yo‘lovchi tashishga litsenziya olish;
e) topib olingan mol-mulkni yashirish;
f) transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta polislarini olishi.

A) *I-a, c, e; II-b, d, f* B) *I-a, b, c; II-d, e, f*
C) *I-a, d, e; II-b, c, f* D) *I-b, d, f; II-a, c, e*

26.

Quyida berilgan ma’muriy jazo turlaridan qaysilari **ham asosiy, ham qo‘shimcha jazo** tariqasida qo‘llanilishi mumkin?

(Mamuriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, 23-24-moddalar, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) ma’muriy ogohlantirish;
2) jarima;
3) ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyoni haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish;
4) ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyoni musodara qilish;
5) muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum etish;
6) haq to‘lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etish;
7) ma’muriy qamoqqa olish;
8) chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish.

A) *3, 6, 8* B) *2, 5, 7* C) *1, 2, 6* D) *3, 4, 5*

27.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 48^1-moddasiga ko‘ra, **ozodlikni cheklash jazosi kimlarga nisbatan TAYINLANMAYDI**?

(2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) pensiya yoshiga yetgan shaxslar; 2) harbiy xizmatchilar; 3) chet el fuqarolari; 4) o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslar; 5) uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollar; 6) O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslar.

A) *2, 3, 6* B) *4, 5, 6* C) *1, 4, 5* D) *1, 2, 3*

28.

Jinoyat ishlari bo‘yicha **surishtiruv o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar** to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

(Jinoyat protsessual kodeksi, 38-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining va uning joylardagi bo‘linmalari;
2) O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining va uning joylardagi bo‘linmalari;
3) O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasining va uning joylardagi bo‘linmalari;
4) O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati organlari va uning joylardagi bo‘linmalari.

A) *1, 3* B) *3, 4* C) *2, 4* D) *1, 2*

29.

Tabiatdan maxsus foydalanganlik va atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun to‘lovlarga oid to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang. ("Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi qonun, 34-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

1) tabiiy resurslarni muhofaza qilganlik va qayta tiklaganlik uchun to‘lovlarning miqdorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi;
2) tabiiy resurslardan foydalanganlik, ularni muhofaza qilganlik va qayta tiklaganlik uchun to‘lov Ekologiya jamg‘armasiga tushadi;
3) atrof muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarganlik va oqizganlik hamda chiqindilar joylashtirganlik, shuningdek, issiqxona gazlari ajratmalari uchun kompensatsiya to‘lovlarining summalari davlat budjetiga tushadi;
4) tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to‘lovlar tabiatdan foydalanuvchi korxonalar mahsulotlarining (bajargan ishlarining, ko‘rsatgan xizmatlarining) tannarxiga qo‘shiladi.

A) *2, 3* B) *1, 3* C) *1, 4* D) *2, 4*

30.

Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi javobni aniqlang.

(Jinoyat kodeksi, 46-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

Agar shaxs sud tomonidan tayinlangan ... muddatining jami o‘ttiz kundan ko‘prog‘ini o‘tashdan uzrli sabablarsiz bo‘yin tovlasa yoki O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketsa, sud ushbu jazoning o‘talmagan muddatini xuddi shu muddatga ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi.

A) *xizmat bo‘yicha cheklash*


B) *axloq tuzatish ishlari*

C) *majburiy jamoat ishlari*

D) *intizomiy qismga jo‘natish*

31.

Quyida berilgan ma’lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan to‘g‘ri javobni aniqlang. (Jinoyat kodeksi, 47-, 49-moddalar, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)



a) ushbu jazo harbiy xizmatni kontrakt bo‘yicha o‘tayotgan harbiy xizmatchini sud hukmida ko‘rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilib, pul ta’minotining o‘n foizidan o‘ttiz foizigacha bo‘lgan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolishdan iboratdir;
b) ushbu jazo muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisini sud tomonidan belgilangan muddat mobaynida ichki tartibi ancha qattiq bo‘lgan maxsus harbiy qismga joylashtirish orqali, muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum etishdir;
c) ushbu jazo chorasi ushbu Kodeks maxsus qismining moddasida nazarda tutilgan hollarda ikki oydan uch yilgacha muddatga qo‘llaniladi;
d) ushbu jazo chorasi ushbu Kodeks Maxsus qismining moddasida nazarda tutilgan hollarda uch oydan bir yilgacha muddatga qo‘llaniladi;
e) ushbu jazo chorasi faqat harbiy xizmatchilarga nisbatan qo‘llaniladi;
f) ushbu jazo faqat asosiy jazo sifatidagina emas, balki qo‘shimcha jazo tariqasida ham qo‘llanilishi mumkin;
g) sud ish holatlari va mahkumning shaxsini hisobga olgan holda uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘rniga shu muddatga ushbu jazoni qo‘llashi mumkin.

A) *I-b, c; II-a, d; III-e, g*

B) *I-a, c; II-b, d; III-e, g*

C) *I- d, e; II- a, c; III-f, g*

D) *I-a, d; II-b, c; III-f, g*

32.

Atamalar va ularning izohi **to‘g‘ri moslashtirilgan** javobni toping.

1 Replika	**a** sud jarayonida oqlovchi bilan qoralovchi o‘rtasidagi e’tirozlar
2 Yuridik akt	**b** tergovda, surishtiruv va sud majlisida shaxsdan ko‘rsatma hamda tushuntirish olish vositasi
3 Kvorum	**c** davlat organlari, mansabdor shaxslar tomonidan o‘z vakolatlari doirasida chiqariladigan farmoyish
4 Diskriminatsiya	**d** jazoga tortish, yuridik majburiyatlarni buzgan shaxs, aybdorga nisbatan qonunda ko‘zda tutilgan sanksiyalarni qo‘llash
5 Senzura	**e** yig‘ilish qatnashchilarining uning qarorlari haqiqiy deb tan olinadigan eng kam son
	f huquq yoki vakolat qonuniyligini tan olish yoki tasdiqlash
	g xalqaro yoki milliy munosabatlarda biror davlatning, yuridik yoki jismoniy shaxsning huquq va imtiyozlarini boshqalarga nisbatan cheklash, kamsitish
	h xorijiy shaxsni uning arizasiga binoan fuqarolikka qabul qilish
	i davlat tashkiloti tomonidan ko‘ngilsiz yoki zararli deb topilgan g‘oyalar va ma’lumotlarning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik yoki cheklab qo‘yish maqsadida bosma nashrlar, sahna asarlari mazmuni ustidan davlat nazorati

A) *1-b, 2-d, 3-e, 4-g, 5-h* B) *1-a, 2-c, 3-e, 4-g, 5-i* C) *1-a, 2-c, 3-f, 4-h, 5-i* D) *1-b, 2-e, 3-d, 4-i, 5-h*

Quyidagi matnni o‘qing va keltirilgan vaziyat asosida shakllantirilgan topshiriqlarni (33-35) bajaring.

"Texno-Line" MChJ shtatlar qisqarishi munosabati bilan muhandis Abdullayev B.A. bilan tuzilgan mehnat shartnomasini Mehnat kodeksining 161-moddasi 2-qismi 2-bandi bo‘yicha bekor qilishni rejalashtirdi. Abdullayev B.A. ushbu korxonada 7 yil davomida uzluksiz ishlab kelgan. Korxona direktori Abdullayev B.A.ni 2 hafta oldin yozma ravishda ogohlantirgan va keyinchalik shartnomani bekor qilib, unga 1 oylik o‘rtacha ish haqi miqdorida ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘lagan. Abdullayev B.A. ogohlantirish muddati va to‘lovlardan norozi bo‘lib sudga murojaat qildi.

33.

Shtat qisqarishi munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilish niyati haqida ish beruvchi xodimni **kamida qancha vaqt oldin** yozma ravishda ogohlantirishi shart?

(Mehnat kodeksining 165-moddasi 1-qismi 1-bandi, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

A) *bir oy* B) *ikki hafta* C) *uch kun*
D) *ikki oy*

34.

Ushbu korxonada 7 yil uzluksiz ish stajiga ega bo‘lgan Abdullayev B.A.ga to‘lanadigan **ishdan bo‘shatish nafaqasi o‘rtacha oylik ish haqining qancha miqdorida bo‘lishi kerak**?

(Mehnat kodeksi 173-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

A) *100 foizidan kam bo‘lmagan*

B) *200 foizidan kam bo‘lmagan*

C) *150 foizidan kam bo‘lmagan*

D) *75 foizidan kam bo‘lmagan*

35.

Mehnat kodeksining 161-moddasi 2-qismi 2-bandi bo‘yicha mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishda qoldirishga doir imtiyozli huquq malakasi va mehnat unumdorligi yuqoriroq bo‘lgan xodimlarga beriladi. Malakasi va mehnat unumdorligi bir xil bo‘lgan taqdirda, **qaysi xodimlar ishda qolishda afzallik huquqiga ega bo‘ladi**? (Mehnat kodeksi, 167-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

A) *kasaba uyushmasiga a’zo bo‘lmagan xodimlar*

B) *pensiya yoshiga yetgan xodimlar*

C) *qaramog‘ida ikki yoki undan ortiq kishi bo‘lgan xodimlar*

D) *korxonada eng kam maosh oladigan xodimlar*

36.

Ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining o‘limi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan so‘ng **necha kun ichida tug‘ilgan** bolasi nikohda tug‘ilgan bola hisoblanadi?

(Oila kodeksi, 60-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

37.

Uy-joyni ijaraga berish shartnomasi taraflarning kelishuvi bilan bekor qilinadi. Uy-joyni ijaraga oluvchi o‘zi bilan birga doimiy yashaydigan boshqa fuqarolarning roziligi bilan ijaraga beruvchini necha oy avval yozma ravishda ogohlantirib, istalgan vaqtda ijara shartnomasini bekor qilishga haqli. (Fuqarolik kodeksi, 615-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

38.

Agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida **qancha muddat davomida** ma’lumotlar bo‘lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topishi mumkin?

(Fuqarolik kodeksi, 33-modda, 2026-yil 1 avgust holatiga ko‘ra)

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

39.

Iste’molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlagan taqdirda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga **qancha muddatda** almashtirib berishi shart?

("Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida"gi qonun, 14-modda, 2026-yil 1 avgust holatiga ko‘ra)

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

40.

Tasviriy san’at asarini oldingi narxdan kamida yigirma foiz yuqori narx bo‘yicha oshkora qayta sotishning (kimoshdi savdosi, tasviriy san’at galereyasi, badiiy salon, do‘kon va hokazo orqali) har bir holatida muallif sotuvchidan qayta **sotish narxining necha foizi miqdorida** haq olish huquqiga ega (ergashma huquq)?

("Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida"gi qonun, 23-modda, 2026-yil 1 avgust holatiga ko‘ra)

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

41.

Ish beruvchi kasaba uyushmasi qo‘mitasi tomonidan xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berish to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan kundan e’tiboran **necha oydan kechiktirmay** mehnat shartnomasini bekor qilishga haqli? (Mehnat kodeksi, 164-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

42.

Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi javobni yozing.

Basharti ma’muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o‘tash muddati tugagan kundan boshlab ... mobaynida yangi ma’muriy huquqbuzarlik sodir etmagan bo‘lsa, mazkur shaxs ma’muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi.

(Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, 37-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

43.

Fuqaro A. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan aybli deb topilib, unga bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari miqdorida jarima jazosi tayinlandi. Fuqaro A. jarimaning 50 baravarini to‘lashga muvaffaq bo‘ldi, biroq qolgan qismini to‘lash imkoniyati yo‘qligi sababli sudga murojaat qildi. Sud jarimaning to‘lanmagan miqdorini majburiy jamoat ishlari jazosi bilan almashtirdi. Jinoyat kodeksining 44-moddasiga asosan, jarimaning to‘lanmagan qismi majburiy jamoat ishlariga aylantirilganda fuqaro A. **necha soat** majburiy jamoat ishlarini o‘tashi kerak?

(Jinoyat kodeksi, 44-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

44.

Voyaga yetmagan guvohni yoki jabrlanuvchini so‘roq qilishning bir kun mobaynidagi umumiy davomiyligi voyaga yetmaganning yoshidan va holatidan kelib chiqishi hamda 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lganlarga nisbatan **jami necha soatdan** oshmasligi kerak?

(Jinoyat protsessual kodeksi, 121-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

45.

Nuqtalar o‘rniga mos kelivchi javobni yozing.

Yuridik va jismoniy shaxslar atrof tabiiy muhitga, inson salomatligi va adamlarning mol-mulkiga, xalq xo‘jaligiga ziyon yetkazayotgan ekologiya jihatidan zarali faoliyatni to‘xtatish to‘g‘risida ... da’vo bilan murojaat qilishga haqli. ("Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi qonun, 52-modda, 2026-yil 1-avgust holatiga ko‘ra)

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.